

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, D.R.Murodova

Bo'lajak o'qituvchilarda "Tanqidiy tafakkur" tushunchasining metodologik asoslari
va o'ziga xos xususiyatlari..... 8

T.A.Egamberdiyeva, J.A.Qurbonov

Bo'lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari... 12

S.Mannapov

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari..... 17

A.Abdullayev, J.X Abdullayev

Kichik maktab yoshidagilarni o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ayrim omillar 21

J.G'.Obidov

Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variantlik asosida o'qitishni
takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari 25

A.T.Xasanov

Harbiy ta'lim bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning
dolzarb masalalari..... 31

X.X.Abdurahmov

Iqtidorli o'quvchi yoshlarni yengil atletika turlariga saralash texnologiyasi 37

R.M.Ubaydullayev

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi
va komponentlari..... 42

A.N.Qosimov

O'quvchilarda sport vositasida milliy identifiklikni shakllantirish samaradorligi..... 49

D.R.Murodova, H.M.Ashurova

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida interfaol metodlarni rivojlantirish 55

A.I.Tuychiyev

Jismoniy mashqlar bilan o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish malakalarini shakllantirish..... 61

S.T.Xakimov

Chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus aerobik mashqlar qo'llash samaradorligi 65

O.M.Karimov

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari 69

D.M.Redjabova

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlashda xotin-qizlarning faoliyatiga
yangicha yondashuvlar 72

B.X.Baydjanov

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish – zararli axborotlar tahdididan
himoyalaniş omili sifatida 76

Ш.В.Джалалов

Влияние дифференцированного подхода на формирование здорового образа
жизни у школьников 81

M.A.Xonbabayeva

Logopedik ritmika fani asosida bo'lajak logopedning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning
pedagogik imkoniyatlari..... 85

Ш.В.Джалалов

Физическая подготовленность 11-12 летних девочек общеобразовательных школ
Ферганской области 91

A.B.Mirzayev

Chet tilni zamonaviy o'qitish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari..... 95

G.K.Yakubova

O'quvchi-yoshlar qomatining konstitutsion tiplari va ularni antropometrik bahollash usullari..... 99

O.Q.Xasanova

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini
takomillashtirish modeli 104



UO'K: 37.015.3:796.08

**O'QUVCHILARDA SPORT VOSITASIDA MILLIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISH
SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У
УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ СПОРТ****THE EFFECTIVENESS OF FORMING NATIONAL IDENTITY IN STUDENTS THROUGH
SPORT****Qosimov Akmal Nasridinovich** 

Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tajriba-sinovdan o'tkazish, natijalarni tahlil qilish tadqiqotning eng ahamiyatli qismini tashkil qiladi. Ushbu maqolada tajriba-sinov ishlarining samaradorligi bo'yicha tahlillar tadqiqot ishining umumiy natijalari aks ettirilgan.

Аннотация

Социально-педагогические основы формирования национальной идентичности у учащихся через спорт и проведение опытно-экспериментальных работ с анализом результатов составляют наиболее важную часть исследования. В данной статье отражены общие результаты исследования, включая анализ эффективности опытных работ.

Abstract

The social-pedagogical foundations of forming national identity in students through sport and conducting experimental trials to analyze the results form the most important part of the research. This article reflects the general findings of the research, including the analysis of the effectiveness of the experimental trials.

Kalit so'zlar: Milliy identiklik, Student-Fisher metodi, o'yin, o'yin ishtirokchilari, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish, innovatsion texnologiyalar, matematik-statistik metod.

Ключевые слова: Национальная идентичность, метод Стьюдента-Фишера, игра, участники игры, организация физического воспитания студентов, инновационные технологии, математико-статистический метод.

Key words: National identity, Student-Fisher method, game, game participants, organization of physical education of students, innovative technologies, mathematical-statistical method.

KIRISH

Mamlakatimizda yoshlarni sport faoliyatiga yo'naltirishda «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada»dan iborat uch bosqichli sport musobaqalari muhim ahamiyatga ega. Zero, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» sport o'yinlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizimning amalga oshirilishi mamlakatimiz yoshlarining ommaviy sportga bosqichma-bosqich tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu tizimning birinchi bosqichi bo'lgan «Umid nihollari» o'quvchilarning ommaviy sportga yo'naltirishda, jismoniy tarbiya va sportni o'quvchilar faoliyatidagi o'rnini sinovdan o'tkazuvchi kichik bir olimpiadadir. Mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida bosqichma-bosqich o'tkazilishi rejalashtirilgan «Umid nihollari» mezonlari, shartlari o'quvchilarning jismoniy barkamollik ko'rsatkichlarini aniqlovchi va unga tayyorlovchi me'yorga aylandi. Pedagogik jarayonda ham o'quvchilarni sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiya asoslarini o'rgatish orqali ularda sport bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmasini shakllantirish maqsad qilinmoqda.

Umumiy o'rta ta'limda o'quv faoliyatini tashkil etishda sport o'yinlari alohida ahamiyatga ega. Sport o'yinlari va o'yinlarga asoslangan o'quv mashg'ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechish mumkinligi pedagogik jihatdan to'g'ri belgilanishi lozim. Bunday o'yinlarni tashkil etishni imkon qadar

boshlang'ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning ta'kidlashicha, o'quvchining o'zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi¹¹. Shuningdek, o'quvchilar mazkur bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sinfdoshlari bilan do'stona muloqot o'rnatolmaydi.

Sport o'yinlarida bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, dedaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik, tibbiy va tarbiyaviy asoslari, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonini loyihalash masalalari A.Abdullaev, F.Kerimov, K.Maxkamjonov, H.Meliev, B.Nigmanov, A.Nurullaev, R.Salomov, K.Raximqulov, T.Usmonxo'jaev, F.Xo'jaev, J.Eshnazarov, B.Haydarov, S.Arzumanov, I.SHamsieva, A.Akramov, T.Yunusov, A.Hamroqulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda milliy identiklik masalalari, milliy o'zlikni anglash, milliy mentalitet va millatlararo munosabatlarni o'rganish masalalari F.Abdurahmonov, J.Bahromov, N.Nazarov, R.Rahmonov, Z.G'afurov, Q.Xonnazarov, S.Atamurodov, A.Achiliev, A.Ashurov, B.Qosimov, B.Karimov, Sh.Qahhorova, Sh.Madaeva tadqiqotlarida o'z aksini topdi, mazkur dissertatsiya ishini yoritishda va tarixiyatqinini berishda xizmat qilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.Ashmarin, V.Balsevich, M.Vilenskiy, G.Germanov, S.Kramskoy, L.Lubisheva, O.Masalova, L.Matveev, Yu.Nikolaev, S.Pavlov, I.Sechenov, V.Smolevskiy, A.Sunik, G.D.Xarabugi kabilar o'quvchilarni jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonlarining modernizatsiyalashning innovatsion texnologiyalari, sportga doir madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganishgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida S.Abashin, I.Shteynberg, N.Lebedeva, G.Soldatova, S.Ikonnikova, L.Ionin, T.Stefanenko, N.Antonova va boshqa olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida identiklik masalalarining jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va sotsiomadaniy meros bo'lib qolishini ta'kidlab, ijtimoiy psixologik nazariy muammo sifatida o'rganishganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tajriba-sinovdan o'tkazish, natijalarni tahlil qilish tadqiqotning eng ahamiyatli qismini tashkil qiladi. Bunda tajriba-sinov ishlarining samaradorligi bo'yicha tahlillar tadqiqot ishining umumiy natijalarini aks ettiradi va ilmiy ishning ilmiy farazini asoslashgan xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlarida 1413 nafar respondent-o'quvchi jalb etilgan edi. Ta'kidlovchi tajriba davrida ham imkon qadar respondent-o'quvchilarning mazkur son ko'rsatkichini saqlab qolishga urinildi. Biroq, asoslovchi hamda ta'kidlovchi tajribalar oralig'ida ayrim o'quvchilarning turli sabablarga ko'ra o'zlari ta'lim olayotgan sinflardan boshqa sinflarga yoki boshqa ta'lim maktablariga o'tganliklari sababli sinov ishlarining yakuniy bosqichida tajriba ishlarini olib borishda sinov jarayoniga jami 1216 nafar respondent jalb etildi. Garchi respondent-o'quvchilarning soni qisman o'zgargan bo'lsa-da, tajriba va nazorat guruhlarida asoslovchi tajribada bo'lgani kabi belgilandi. Shunga ko'ra ta'kidlovchi tajriba bosqichida tajriba guruhlarida 604 nafar, nazorat guruhlarida esa 612 nafar o'quvchi respondent sifatida ishtirok etdi. Har bir tajriba maydonida tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirilgan respondent-o'quvchilarning soni quyidagi ko'rsatkichlarni tashkil etdi.

¹¹ Sadullayev B. O'yinlar vositasida o'quvchilarda do'stona munosabatlarga asoslangan ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi//. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand.: SamDU. 2019. –B. 11.

1-jadval

Tajriba-sinov maydonlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarini respondent-o'quvchilarning soni

№	Sinov maydonlari	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni (nafar hisobida) $n_u = 1216$	
		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	Namangan viloyati Chortoq tumani 26 va 67-umumiy o'rta ta'lim maktablari	132	120
2.	Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 32 va 15-umumiy o'rta ta'lim maktablari	120	128
3.	Samarqand viloyati Samarqand shahar 6 va 47-umumiy o'rta ta'lim maktablari	112	124
4.	Surxondaryo viloyatidagi Termiz shahridagi 54 av 21-umumiy o'rta ta'lim maktablari maktablar	116	120
5.	Toshkent viloyatidagi Bekobod tumani 68 va 74-umumiy o'rta ta'lim maktablari	124	120
Jami		604	612

O'quvchilarda sport vositasida milliy identifiklikni shakllanganlik darajasining sifat ko'rsatkichlariga muvofiq matematik-statistik metod asosida qayta tahlil etishga imkon beruvchi yuqori, o'rta va past darajalarga ajratildi. Xususan:

1. Yuqori daraja – milliy identifiklik tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatini chuqur anglaydilar, ularda mazkur tuyg'ularga ega bo'lish ehtiyoji va xohishi yuzaga kelgan, vatan ravnaqi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-foydali faoliyatni amalga oshiradilar va bu borada faollik ko'rsata oladilar.

2. O'rta daraja – milliy identifiklik tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatini yetarli darajada anglaydilar, ularda mazkur tuyg'ularga ega bo'lish ehtiyoji va xohishi yuzaga kelgan, vatan ravnaqi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-foydali faoliyatni amalga oshiradilar, biroq bu borada yetarli darajada faollik ko'rsata olmaydilar.

3. Past daraja – milliy identifiklik tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatini qisman anglaydilar, ularda mazkur tuyg'uga ega bo'lish ehtiyoji va xohishi vujudga kelgan, vatan ravnaqi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-foydali faoliyatni sezilarli ravishda amalga oshirmaydilar, shuningdek, bu borada faollik ko'rsatmaydilar.

Ta'kidlovchi tajriba davrida respondent sifatida belgilangan sport vositasida o'quvchilarda milliy identifiklikni shakllanganlik darajasini yorituvchi ma'lumotlar tahlil qilindi. Natijada quyidagi jadvallar hosil qilindi (2 va 3-jadvallar):

2-jadval

Respondent-o'quvchilarda milliy identifiklikni shakllanganligi (ta'kidlovchi tajriba)

Tajriba bosqichi	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni $n_{1,2} = 1216$ nafar					
	Tajriba guruhlarini $n_1 = 604$ nafar			Nazorat guruhlarini $n_2 = 612$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Ta'kidlovchi tajriba	112	138	52	90	102	114

3-jadval

Respondent-o'quvchilarda milliy identifiklikni shakllanganligi (ta'kidlovchi tajriba)

	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni $n_{1,2} = 1216$ nafar
--	---

Tajriba bosqichi	Tajriba guruhlari $n_1 = 302$ nafar			Nazorat guruhlari $n_2 = 306$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Ta'kidlovchi tajriba	152	236	216	92	164	356

2-jadval hamda 3-jadvallarning ko'rsatkichlari ta'kidlovchi tajriba bosqichida tajriba hamda nazorat guruhlarining respondentlari tomonidan milliy identiklikni shakllanganligini ifodalovchi qiymatlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Ma'lumki, asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba jarayonida qo'lga kiritilgan natijalar umumlashtirilsagina, har ikki bosqichda erishilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu bois ta'kidlovchi tajriba yakunida har ikki bosqich sinov ishlarining yakunlari: milliy identiklikni shakllanganlik darajasi bo'yicha o'zaro umumlashtirilib, quyidagi jadval hosil qilindi (4-5-jadvallar):

4-jadval

Respondent-o'quvchilarda milliy identiklikni shakllanganligi (asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar)

Tajriba-sinov bosqichlari	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni $n_{1,2} = 1216$ nafar					
	Tajriba guruhlari $n_1 = 604$ nafar			Nazorat guruhlari $n_2 = 612$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Asoslovchi tajriba	152	196	256	168	176	268
Ta'kidlovchi tajriba	224	276	104	180	204	228

5-jadval

Respondent-o'quvchilarda milliy identiklikni shakllanganligi (asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar)

Tajriba bosqichi	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni $n_{1,2} = 1216$ nafar					
	Tajriba guruhlari $n_1 = 604$ nafar			Nazorat guruhlari $n_2 = 612$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Quy	Yuqori	O'rta	Past
Asoslovchi tajriba	96	160	348	88	152	372
Ta'kidlovchi tajriba	276	256	72	140	284	188

Tadqiqotning yakuniy – ta'kidlovchi tajriba bosqichida sport vositasida o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishga doir miqdor ko'rsatkichlarni Student-Fisher metodi bo'yicha matematik-statistik tahlildan o'tkazish maqsadga muvofiq deb topildi.

Student-Fisher metodining shartlariga ko'ra tahlilning dastlabki bosqichida tajriba hamda nazorat guruhlarida milliy identiklikni shakllanganligini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilab olindi. Tanlanmalar har ikki guruh – tajriba (1-tanlanma) va nazorat (2-tanlanma) guruhlar uchun belgilandi. So'ngra belgilangan tanlanmalar bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variatsiya qatorlari hosil qilindi (6-jadval):

6-jadval


Tajriba va nazorat guruhlari uchun belgilangan tanlanmalar bo'yicha variatsiya qatorlari (ta'kidlovchi tajriba)

Tanlanmalar	Guruhlar	O'quvchilar soni	Yuqori	O'rta	Past
-------------	----------	------------------	--------	-------	------

PEDAGOGIKA

1-tanlanma	Tajriba	$n_1 = 604$ nafar	276	256	72
2-tanlanma	Nazorat	$n_2 = 612$ nafar	140	284	188

Tahlilning navbatdagi bosqichda yuqorida belgilangan tanlanmalarga mos keladigan diagramma hosil qilinadi:



1-diagramma. Respondent o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllanganligi darajasi (ta'kidlovchi tajriba)

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = 0,46 \cdot 3 + 0,42 \cdot 2 + 0,12 \cdot 1 = 1,38 + 0,84 + 0,12 = 2,39$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{2,39}{3} \cdot 100\% = 78,3\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{n=3} q_j Y_j = 0,23 \cdot 3 + 0,46 \cdot 2 + 0,31 \cdot 1 = 0,69 + 0,92 + 0,31 = 1,92$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,92}{3} \cdot 100\% = 67,6,0\%$$

Demak, tajribadan keyindagi o'rtacha o'zlashtirish $(78,3-67,6)\% = 10,7\%$ ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida 1,15 barobar ortiqqligini anglatadi. Olingan natijalardan tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Bizga ma'lum $X_i = 2,39$; $Y_j = 1,92$ $\Delta_x = 0,07$; $\Delta_y = 0,06$ ga teng. Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$\hat{E}_{\acute{o}\acute{n}\acute{a}} = \frac{(\bar{O} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,39 - 0,07}{1,92 + 0,06} = \frac{2,32}{1,98} = 1,17 > 1;$$

$$\hat{E}_{\acute{a}\acute{a}\acute{a}} = (\bar{O} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,39 - 0,07) - (1,92 - 0,06) = 2,32 - 1,86 = 0,46 > 0.$$

Darhaqiqat, hosil bo'lgan qiymatlar tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholovchi mezonning birdan hamda bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi to'g'risidagi fikrning haqqoniyligini tasdiqdaydi. Ya'ni, tajriba guruhlariga birlashtirilgan respondent-o'quvchilari nazorat guruhlaridagi tengdoshlariga qaraganda sezilarli darajada milliy identiklik tarbiyasiga ega. Tajriba va

nazorat guruhlarida respondent-o'quvchilarida milliy identiklikni shakllanganligi qayd etilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi sezilarli farq har ikki sinfga tegishli qiymatlarning ishonchlilik oralig'iga tushmasligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilganda, sport o'yinlari jarayonida o'quvchilar qanday ko'nikmalarni egallashlari lozimligini aniq belgilab berish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi: samarali raqobat va hamkorlik; muzokaralar olib borish; ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va yakunlash; ziddiyatli vaziyatlarni boshqarish; bosimlar vujudga kelgan vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va tartibga solish; jamoa doirasida samarali hamkorlik muhitini o'rnatish kabi ko'nikmalarni izchil egallab boradilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent.: O'zbekiston. 2018, -B.37.
2. Norqobilov M.N., Mirxodjayeva Z.S., Mahmudov V.V. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar. Monografiya. Toshkent.: TIQXMMI, 2019, -B. 6-7.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» to'g'risidagi PF-5924-son Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2020 yil 24 yanvar.
5. Губа В.П. и др. Измерения и вычисления в спортивно-педагогической практике. Москва.:Спорт академ Пресс, 2002. –С.86.